



ISHONCHLI NUTQ SO'ZLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI BOSQICHLAR

Burxonova Sarvinoz Azizbek qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 2-bosqich magistranti

Burxonovna002@icloud.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarda ishonchli nutq so'zlash ko'nikmasini shakllantirishning uch bosqichli tizimi yoritilgan. Muallif ishonchli nutq so'zlashda tayyorlov bosqichi, nutq jarayoni va baholash bosqichiga strategik tayyorlanish muhimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, o'quvchilarning aniq, asosli, mantiqli va tinglovchiga tushunarli tarzda boy nutq so'zlash malakasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar namuna sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: *ishonchli nutq, tayyorlov bosqich, mazmun, baholash, mantiq, dalil, tahlil, rejalashtirish.*

Annotation:

This article describes a three-stage system for developing students' persuasive speaking skills in the process of mother tongue education. The author emphasizes the importance of strategic preparation in persuasive speaking through the stages of preparation, speech delivery, and evaluation. In addition, practical recommendations are provided as examples to help students develop the ability to speak clearly, logically, convincingly, and in a way that is understandable to listeners.

Keywords: *persuasive speech, preparatory stage, content, evaluation, logic, evidence, analysis, planning.*

Аннотация:

В данной статье освещается трёхэтапная система формирования у учащихся навыков убедительной речи в процессе обучения родному языку. Автор подчёркивает важность стратегической подготовки к этапам подготовки, произнесения речи и её оценки при обучении убедительной речи. Также в статье представлены практические рекомендации, способствующие развитию у учащихся навыков содержательной речи, выраженной ясно, аргументированно, логично и понятно для слушателей.

Ключевые слова: *убедительная речь, подготовительный этап, содержание, оценивание, логика, доказательство, анализ, планирование.*

Ona tili darslarida o'quvchilarda ishonchli nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish faqat gapirish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchi fikrlarni aniq, mantiqli va ishonch bilan ifodalashiga olib boradigan tizimli pedagogik jarayondir. Bu jarayon bosqichli, rejali va tartib bilan aniq tarzda bajarilsa, ko'zlangan natijaga erishish mumkin.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ishonchli nutq - bu tinglovchining fikriga, munosabatiga, xulq-atvoriga ta'sir etish vositalari orqali ma'lum bir qarash va harakatga ishontirishga qaratilgan maqsadli kommunikativ nutq turi.

Tayyorlov bosqich. Bunda o'quvchi gapirishdan oldin fikrni shakllantiradigan tayyorgarlik bosqichini amalga oshiradi. Bu jarayon zamonaviy til o'qitish nazariyasida kognitiv psixologiya bilan uzviy bog'liq. Unga ko'ra miyya avval g'oyani shakllantiradi, so'ng esa uni til vositalariga aylantiradi. Og'zaki nutq paytida inson miyyasi bir vaqtning o'zida bir nechta operatsiyani bajaradi:

G'oyani shakllantiradi (nima deyishni o'ylash);

Til vositalarini tanlaydi (so'zlar, gap, grammatika);

Nutqni og'zaki ishlash chiqaradi (gapirish);

Tinglovchi reaksiyasini miyyada tahlil qiladi.

H. Douglas Brown ta'kidlaganidek, bu jarayonlar rejalashtirish, shakllantirish va ijro bosqichlarida amalga oshadi. Brown rejalashtirishni metakognitiv strategiya sifatida ko'radi. Metakognitiv strategiyalar o'quvchining o'rganish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu rejalashtirish jarayoni og'zaki nutqdan oldingi tayyorgarlik bosqichi — pre-speaking bilan uzviy bog'liqdir²⁶. Bu tamoyilga ko'ra, o'quvchi oldindan nimani gapirishi va qanday talqin qilishini o'ylaydi, nutq so'zlashdan avval fikrlarni yaratadi, o'z faoliyatini ongli tarzda boshqaradi. O'quvchi samarali gapirish uchun avval ongli rejalashtirishi muhim qism sanaladi. Bu jarayon faqat tayyorgarlik emas, balki kognitiv, lingvistik va psixologik jihatdan nutqqa tayyorlanishdir. Agar o'quvchi bu bosqichni nutq so'zlashdan avval bajarmasa, bir vaqtning o'zida quyidagi vazifalarni bajarishga to'g'ri keladi:

Mazmunni o'ylaydi;

So'z tanlaydi;

Grammatikani nazorat qiladi.

Natijada esa ishonchli, aniq va ta'sirchan nutq yaratish jarayoni murakkablashib boradi, tayyorlov bosqichi esa bunday yukni kamartirishga, samarali nutq hosil qilishga yordam beradi. Shuningdek, bu bosqich nutqni aniq, maqsadli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Nutqiy faoliyat bosqichi. Bu bosqichda o'quvchi nutqiy faoliyat ustida ishlayotgan, fikrni shakllantirish va ifodalashni amalga oshirayotgan jarayondir. Nazariy grammatik qoidalarini avtomatlashgan nutq ko'nikmasiga aylantirishdir. Ishonchli nutq nafaqat til qoidalarini bilish, balki psixolingvistik tayyorgarlikni, doimiy shug'ullanishni talab etadi. Shu sababli, – ‘Ba’zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san’ati og’zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishuvchi alohida san’atdir”²⁷ Bu bosqichda zamonaviy ta’lim metodikasi uchta ustuvor maqsadni belgilaydi;

²⁶ H. Douglas Brown., PRINCIPLES of LANGUAGE LEARNING AND TEACHING., San Francisco State University. Capter-Styles and Strategies 124-page.

²⁷ R. Qo'ng'urov., E Betmatov., Y. Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. 142-bet.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Nutq ravonligi saqlash, fikrni uzilishlarsiz, tabiiy sur'atda yetkazish;

Grammatik va leksik normalarga amal qilish;

Moslik, ya'ni vaziyatga, mavzuga qarab til uslubini to'g'ri tanlash.

O'quvchi nutq vaqtida o'z fikrini mantiqiy ketma-ketlikka solishni o'rganadi, "ichki nutq"dan "tashqi nutq"ga o'tishdagi uzulishlarni kamaytiradi va nutqiy dadillikni oshiradi. Bu bosqichda o'z nutqini eshitish va tahlil qilishga harakat qilishi, shuningdek, grammatik va uslubiy xatolarni nutq davomida anglab, tuzatishga va qayta shunday xatoni qilmaslikka urinish imkoni bo'ladi. Tinglovchidan avval yo'l qo'yilgan kamchiliklarni anglab yetish va bu xatoni tuzatish natijasida nutqqa bo'lgan ishonchlilik elementining qiymati pasaymaydi. Nutq jarayonida so'z topolmay qolganda sinonimlardan foydalanish, parafrazlash va pauzalarni to'g'ri boshqarish o'quvchida har qanday vaziyatdan chiqib ketish imkonini beradi.

Mantiqiy isbot – bu nutqning intellektual asosi bo'lib dalillarga tayanadi. Faktlar, statistik ma'lumotlar, tadqiqotlar natijasi, taniqli, buyuk shaxslarning tajribalarini keltirish orqali nutqqa bo'lgan ishonch tezda shakllanadi. Buni nutq jarayonida qo'llashda "sabab-oqibat" janjirini qurish kerak. Bunda ishtirokchi: "agar biz (A) ni qilsak, (B) natijaga erishamiz, chunki (D) tadqiqot buni isbotlagan" tarzida nutq yaratish samarali usullardan biridir.

Tahlil va baholash bosqichi. Bu bosqichda nutq jarayonida erishilgan natijalar sarhisob qilinadi va kelajakdagi yutuqlar uchun poydevor qo'yiladi. Bu yakunlovchi bosqichda o'qituvchi yoki tengdoshlari tomonidan "feedback" ya'ni nutqning kuchli va kuchsiz tomonlari aytib o'tiladi. Avvalo uning nutqidagi ijobiy va yaxshi tomonlari e'tirof etiladi va rag'bat tarzida mukofotlanadi. Keyingi navbatda nutq jarayonida yozib olingan xatolar umumiy tarzda tahlil qilinadi. Shunda o'quvchi o'z nutqini tahlil qilishga va xatolarni tuzatishga harakat qiladi. Metaokgnitiv ko'nikmalar rivojlanib, o'z kamchiliklarini anglagan holda keyingi safar yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishga urinadi. Va yanada yaxshiroq nutq so'zlay oladi.

Milliy o'quv dasturi va ta'lim standartlariga mos ravishda, o'quvchilarning entellektual salohiyati, bilim darajasi va ijtimoiy holati, ya'ni o'quvchi ekanligini inobatga olgan holda ishonchli nutq tahlili va baholash jadvalini ishlab chiqish zarurati paydo bo'ladi. Bu baholash jadvali nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilar o'rtasida ham tarqatiladi. Natijada ularning tingdoshlarni kuzatish, tahlil qilish, baholash va kamchiliklarni aniqlash ko'nikmasi shakllanib boradi. Dars jarayonida esa holis baholash va umumiy fikrlarni aniqlash imkoni yuzga keladi. Nutqning eng kuchli tomonlari va qanday jihatlar ustida ko'proq shug'ullanish kerakligi ham aytib o'tiladi.

Baholash bu nutq jarayonining yakuni emas, balki keyingi muvaffaqiyatli nutq uchun boshlang'ich maydondir. Nutq so'zlash esa tayyorgarlikdagi bilimlarga tayanish, nutq vaziyatidagi mahorat va tahlildagi xolislikning yaxlit birligidir. Ushbu zanjirning biror bo'g'ini oqsashi nutqning tinglovchilarga umumiy ta'siri va ishonchliligini ta'sir qilishi mumkin.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Qo'ng'urov., E Betmatov., Y. Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. 142-bet.
2. G. Jo'raqulova. "Nutqning ishonchlilik tamoyili" maqola. Ommaviy axborot vositalari til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos- xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023. 501-bet.
3. R. Jumaniyozov. Notiqlik san'ati akamediyasi – ijtimoiy sahifasi. Nazariy tayyorgarlik. https://t.me/notiq_uz
4. H. Douglas Brown., PRINCIPLES of LANGUAGE LEARNING AND TEACHING., San Francisco State University. Capter- Styles and Strategies 124-page.

References:

1. R. Qo'ng'urov., E Betmatov., Y. Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. 142-bet.
2. G. Jo'raqulova. "Nutqning ishonchlilik tamoyili" maqola. Ommaviy axborot vositalari til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos- xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023. 501-bet.
3. R. Jumaniyozov. Notiqlik san'ati akamediyasi – ijtimoiy sahifasi. Nazariy tayyorgarlik. https://t.me/notiq_uz
4. H. Douglas Brown., PRINCIPLES of LANGUAGE LEARNING AND TEACHING., San Francisco State University. Capter- Styles and Strategies 124-page.

Ссылки:

- 1 R. Qo'ng'urov., E Betmatov., Y. Tojiyev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. 142-bet.
- 2 G. Jo'raqulova. "Nutqning ishonchlilik tamoyili" maqola. Ommaviy axborot vositalari til va uslub masalasi: tahlil, tasnif, qiyos- xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2023. 501-bet.
- 3 R. Jumaniyozov. Notiqlik san'ati akamediyasi – ijtimoiy sahifasi. Nazariy tayyorgarlik. https://t.me/notiq_uz
- 4 H. Douglas Brown., PRINCIPLES of LANGUAGE LEARNING AND TEACHING., San Francisco State University. Capter- Styles and Strategies 124-page.